



KREDIT REYTINGI TIZIMLARI VA BANK KREDITLASH SIYOSATIGA TA'SIRI

Raxmonov I.X

TDIU "Bank ishi" kafedrasida dotsenti,

Primova M

TDIU, Bank ishi va audit ta'lim yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15489581>

ARTICLE INFO

Received: 15th May 2025

Accepted: 19th May 2025

Published: 22nd May 2025

KEYWORDS

kredit reytingi, reyting agentliklari, bank kreditlash siyosati, risk-menejment, foiz stavkalari, tartibga solish islohotlari

ABSTRACT

Ushbu maqolada kredit reytingi tushunchasi, reyting agentliklarining iqtisodiy rolini ochib berish, shuningdek, bank kreditlash siyosatiga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilish maqsad qilingan. Avvalo, kredit reytingi tizimlarining tarixiy shakllanish bosqichlari, reyting agentliklarining reyting berish metodologiyasi va mezonlari yoritiladi. Shundan so'ng, reytinglarning banklar qaror qabul qilish jarayonidagi o'rni, xususan, kredit shartlari, foiz stavkalari hamda risk-menejment siyosatini shakllantirishdagi roli atroflicha ko'rib chiqiladi. Maqolaning yakunida bank sektorida reyting baholari samaradorligini oshirish, alternativ baholash modellari va tartibga solish islohotlari bo'yicha tavsiyalar ilgari suriladi.

Kirish

Reytinglar muayyan holatni turli yo'llar bilan aniqlovchi, har qanday mamlakatda bir yoki bir nechta yo'nalishdagi vaziyatni to'g'ri ifodalab beradigan ko'rsatkichlardir. Ular turli xil ko'rinishda bo'lishi mumkin, hatto baxt indeksigacha. Reytinglar o'nlab ko'rsatkichlar va ko'pincha o'ta murakkab formulalarga asoslanadi. Bugun reytinglar shu qadar ko'p va yana ularning soni o'sib boryaptiki, biriga ishonish mumkin, boshqasiga esa yo'q. Ushbu holatda ko'p narsa talab va taklif qonuniga asoslanadi. Kredit reytinglari esa eng oldin paydo bo'lganlaridan biri hisoblanadi. Banklar o'z mijozlarini shaxs va kompaniya jihatdan farqlay boshlashi, ishonch va tavakkalchilik tamoyillari yuzaga kelishi bilan kredit reytinglarining ham tarixi boshlangan. Ushbu reyting turida kreditning qaytarilmaslik xavfini baholash asosiy xususiyat hisoblanadi. Qarz oluvchi sifatida sizning reytingingiz qanchalik yuqori bo'lsa, unda sizga foydali shartlar asosida ko'proq pul taklif qilishlari ehtimoli yuqori bo'ladi. Moliyaviy bozorda globallashuv va unda turli vositalarning rivojlanishi bozor ishtirokchilarini turli kategoriyalarga ajratish zarurligini ko'rsatdi. Va natijada moliyaviy korporatsiya va banklar,

yirik transmilliy kompaniyalar, mustaqil davlatlar va ularning mahalliy hokimiyat organlari vujudga keldi. Masalan, bitta davlatning mustaqil reytingi korporativ sektorning mavjud holati va uning istiqbolini hisobga olgan holda, shuningdek, milliy kompaniyalarning sharoiti, makroiqtisodiy parametrlarni o'lchash bilan baholanadi. Inflatsiya, ichki va tashqi qarzni hajmi va strukturasi, valuta kursi va boshqa makro indikatorlar, siyosiy tizimning barqarorligi ham muhim. Agar davlat qarz oluvchi bo'lsa, unda kompaniya yoki bankka qaraganda ko'proq omillarni hisobga olish zarurati paydo bo'ladi. Kredit reytingi — moliyaviy sub'ekt (kompaniya, hukumat yoki bank) ning qarzni o'z vaqtida qaytarish salohiyatini baholovchi indikator bo'lib, jahon moliya bozorida katta ahamiyat kasb etadi.[1] Xalqaro maydonda reyting agentliklari (mo'tabar standart: "Big Three" – Standard & Poor's, Moody's, Fitch) tomonidan beriladigan reytinglar investorlar, banklar va boshqa moliya institutlari qaroriga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu maqola kredit reytingi tizimlarining shakllanishi va faoliyat mexanizmini tahlil qilish, shuningdek, ushbu reytinglarning bank kreditlash siyosatiga bo'lgan roli va oqibatlari yoritilgan. Kredit reytingi tizimi rivojlanish bosqichlariga nazar soladigan bo'lsak, kredit reytingi tizimi XX asrning boshlarida, ayniqsa, 1909-yilda John Moody temir yo'l obligatsiyalarining ishonchligini baholash maqsadida reyting nashr etgani bilan boshlangan deb hisoblanadi. [2] Shundan so'ng Standard & Poor's, Fitch kabi agentliklar shakllanib, tobora kengroq doiradagi moliyaviy instrumentlarni baholay boshladi.

Reyting agentliklari turli metodologiya va mezonlar asosida baholash o'tkazadi:

- Moliyaviy ko'rsatkichlar (likvidlik, rentabellik, qarz yuklamasi)
- Bozor sharoiti va huquqiy muhit
- Tashkiliy boshqaruv va kredit tarixi

Bunday baholash investorlar uchun qarzni (obligatsiya, kredit liniyasi va h.k.) sotib olish yoki banklar uchun qarz berishda asosiy yo'naltiruvchi xususiyat kasb etadi. Yuqori reytingga ega qarz oluvchilar banklar tomonidan qulay shartlarda kredit olishga, kamroq foiz stavkasi va avvalroq qaytarish muddatiga ega bo'lishi mumkin. Past reytingli sub'ektlar esa yuqori foiz stavkalari, ko'proq ta'minot yoki qisqa muddatli kreditlar bilan cheklanadi. [3] Shuningdek, ular risk-menejment va kapital yetarliligi talablariga mos kelishi kerak. Reyting agentliklari tahlillariga tayanib, banklar risk-modelini takomillashtiradi. Banklar Basel II/III kapitallanish talablari doirasida reytinglarni qo'llab, kapital yetarliligi uchun ajratma (provision) miqdorini belgilashda ularni inobatga oladi. Natijada reyting baland bo'lsa, bank risk darajasi past deb topilib, kamsroq kapital ajratiladi. Banklar qaror qabul qilish jarayonida ushbu reytingdan foydalanadilar. Banklar kompaniya yoki davlat obligatsiyalarini sarmoyalashda yoki kredit berishda reytingni asosiy chora sifatida qo'llaydi. Bu jarayon investitsiya portfelini boshqarishda samarali bo'lsada, ba'zi hollarda banklar faqat reytingga tayanib, chuqurroq tahlil o'tkazmasdan qaror qabul qilish xavfi mavjud.

Dunyoda reyting berish sohasida "Big Three" (S&P, Moody's, Fitch) deyarli monopol mavqega ega.[4] Buning natijasida ushbu agentliklar narx siyosati va baholash strategiyalari bo'yicha juda keng imtiyozlarga ega bo'ladi, raqobatchilar yetarlicha rivojlanmaydi. Reyting agentliklari ma'lum bir to'lov evaziga reyting xizmati ko'rsatadi, bu esa baholash jarayonida manfaatlar to'qnashuvi (conflict of interest) ehtimolini yuzaga keltiradi. Masalan, 2008-yilgi moliyaviy inqiroz davrida ko'plab past sifatli aktivlar yuqori reyting bilan baholangani jiddiy tanqidlarga sabab bo'lgan.[5] Moliyaviy inqiroz davrida noqulay subprime obligatsiyalariga berilgan haddan ziyod ijobiy reytinglar kasriga butun moliya tizimi risk ostida qoldi. Bu hodisa reyting agentliklari metodologiyasiga tanqidlar kuchayishiga, regulatsiya masalasida tub islohotlar zarurligiga e'tibor qaratdi. Ko'plab yirik banklar Basel II doirasida IRB (Internal Ratings-Based) usulidan foydalanishadi. Unga ko'ra, bank o'zi ishlab chiqqan risk-model

asosida qarz oluvchilarning kredit qobiliyatini baholaydi. Bunday usul reyting agentliklari monopoliyasini cheklash va bankka moslashtirilgan metodologiyadan foydalanish imkonini beradi. Reyting agentliklarining rolini cheklash yoki faoliyatini shaffoflashtirish maqsadida ba'zi davlatlar qonun hujjatlariga o'zgartirish kiritdi. Masalan, Yevropa Ittifoqi reyting agentliklari ustidan ESMA (European Securities and Markets Authority) nazoratini joriy etgan.[6] Zamonaviy raqamli texnologiyalar, Big Data va sun'iy intellekt (AI) asosidagi analitik vositalar raqamli skoring xizmatlari orqali kompaniya yoki shaxsning risk darajasini baholash jarayonini takomillashtiradi. Bunday muqobil modellari kutilayotgan riskni aniqroq bashorat qilishda yordam beradi.

1999-yilda O'zbekistonning mamlakat xavfi darajasi ilk bor Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan tasniflangan. Ushbu reyting OECDning "Rasmiy qo'llab-quvvatlangan eksport kreditlari bo'yicha kelishuv" (Arrangement on Officially Supported Export Credits) doirasida ishtirokchi mamlakatlar tomonidan ishlab chiqilgan "Country Risk Classification" tizimi asosida belgilanadi. Mazkur reyting O'zbekistonning xalqaro moliyaviy majburiyatlarini bajarish bo'yicha kredit xavfini baholashga qaratilgan bo'lib, u suveren reyting emas, balki eksport kreditlari bilan bog'liq xavflarni aniqlashda qo'llaniladi.[7] Shuni ta'kidlash joizki, mamlakat kredit reytingini ko'tarishda valuta siyosatining muvaffaqiyatli liberallashtirilishi va milliy valutaning konvertatsiya qilinishi, hamda ochiq iqtisod muhitining yaxshilanishi va statistik hisob-kitoblarning shaffoflashuvi kabi bir qator omillar muhim rol o'ynashi barchamizga ma'lum.

Xulosa

Kredit reytingi tizimlari zamonaviy moliyaviy bozorning ajralmas qismi sifatida qarz oluvchilarning to'lov qobiliyatini baholash va bank kreditlash siyosatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Reyting agentliklari bergan baholar banklarning kredit shartlari, foiz stavkalari, kapital ajratmalari va investitsion qarorlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Biroq, ushbu tizimga oid manfaatlar to'qnashuvi, monopoliya xususiyatlari va 2008-yilgi inqiroz tajribasi reyting mexanizmini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Davlat regulatsiyasi, ichki reyting modellari (IRB), Raqamli texnologiyalar yordamida riskni baholash kabi islohotlar reyting tizimlarining ishonchligini oshirishi mumkin. Shu tariqa banklar kreditlash siyosatini shakllantirishda puxta risk-analitik yondashuvni qo'llab, iqtisodiy barqarorlik va investorlar manfaatini uyg'unlashtirishi mumkin.

O'zbekiston kredit reytingini tuzishida quyidagilarni hisobga oladi:

- Mamlakatning kredit tizimi bo'yicha tarixi;
- Moliyaviy ahvol;
- Qarzni qoplash uchun zarur bo'lgan valuta zaxiralari miqdori;
- Iqtisodiy barqarorlik, uning barqaror o'sish sur'ati.
- Ma'muriy sohadagi turli qiyinchiliklarni bartaraf etish;
- Kredit resurslarini olishda qulay muhitga erishish;
- Olingan kreditlarni sug'urtalash xarajatlarini kamaytirish;
- Uzoq muddatga kredit olish imkonining paydo bo'lishi.

Bugun O'zbekistonda ichki va tashqi qarzning kamligi, korporativ qarzlarning kamhajmliligi muhiti, shuningdek, arziqli kredit tarixi mavjud. Chunki davlat qarzlarini doim to'lab borgan.

7. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Cantor, R., Packer, F. *Determinants and Impact of Sovereign Credit Ratings*. FRB of New York Economic Policy Review, 1996.

2. Moody's Investors Service. *Methodology for Rating Corporate Bonds*. 2020.
3. Basel Committee on Banking Supervision. *Basel II: International Convergence of Capital Measurement and Capital Standards*. 2006.
4. Kerwer, D. *Governing financial markets by international standards*. European Law Journal, 2005.
5. Partnoy, F. *Rethinking Regulation of Credit Rating Agencies*. 2009.
6. ESMA. *Credit Rating Agencies Regulation*. 2018.
7. OECD. (2024). *Country Risk Classifications of the Participants to the Arrangement on Officially Supported Export Credits: 1999–2024*.

